



O‘ZBEKISTONDA XOTIN-QIZLARNING SANOATGA JALB QILINISHI

Farg‘ona davlat universiteti

Tarix mutaxassisligi

2-kurs magistranti

Ashurova Gulruxsor Bahromjon qizi

Annotatsiya: Ushbu maqolada ikkinchi jahon urushi davrida O‘zbekiston xotin-qizlarining sanoatga jalb qilinishi va uning oqibatlari haqida so‘z boradi.

Kalit so‘zlar: Xotin-qizlar, ta’lim tizimi, O‘zbekiston SSR, gender tenglik, maktab, oliy ta’lim, ijtimoiy taraqqiyot, sovet davri

Urushning boshlanishi bilan O‘zbekiston iqtisodiyoti ham harbiy vaziyatdan kelib chiqib zudlik bilan front manfaatlariga bo‘ysundirildi. Front yaqinidagi hududlarda joylashgan sanoat korxonalarini O‘rta Osiyo va Qozog‘iston respublikalariga evakuatsiya qilish boshlandi. Ushbu hududlarga keltirilgan 308 korxonaning 100 dan ortig‘i O‘zbekiston hududiga joylashtirildi. “Lentekstil mash”, “Rostsel mash”, “Krasniy Aksay”, “Suma Kompressor va Dnepropetrovek karborund zavodlari”, Moskva “Podmyomnik”, “Elektrostanok” zavodlari shular jumlasidandir. Olib borilgan harakatlar natijasida keltirilgan korxonalarni nihoyatda qisqa muddatlarda ishga tushirishga erishildi. 1941-yilning oxirigacha shunday korxonalardan 50 tasi ishga tushirildi. 1942-yilning birinchi yarmida esa barcha sanoat korxonalari to‘liq quvatda ishlab mudofaa uchun mahsulot chiqara boshladi. Evakuatsiya qilingan zavod va fabrikalarni tiklashda talabalar, o‘quvchilar, uy bekaları, fan va madaniyat xodimlari, xizmatchilar va kolxozchilar quliga belkurak, ketmon, lom olib mehnat qildilar. Urush rangli metallar qazib



chiqarishni jadallik bilan ko'paytirishni zarur qilib qo'ydi. Shuning uchun ham 1942-yilda Langar molibden konini foydalanishga topshirish sohasidagi ishlar tez suratlar bilan boshlanib ketdi. Bu yerda misli ko'rilmagan qisqa muddatda molibden fabrikasi barpo etildi. Ayni vaqtda Qo'ytosh konining ishlab chiqarish quvvati va Qoratepa rangli metallar konining quvvati keskin oshirildi. Sanoat qurilishida o'lka aholisining barcha qatlamlari faol ishtirok etdi. Eng ko'p mehnat qilganlar esa, qishloq xo'jaligi vakillari edi.

Og'ir urush davrida rivojlanayotgan sanoatni ishchi kuchi bilan ta'minlash vazifasi ayniqsa keskin bo'lib turdi. Ko'plab tajribali ishchilarning frontga ketishi natijasida vujudga kelgan ishchilar yetishmovchiligi sanoat korxonalariga yangi kelgan va tajribaga, mehnat malakasiga ega bo'lmaganlarni g'oyat qisqa muddat ichida turli ishlab chiqarish kasblariga o'rgatish va o'qitish yo'li bilan to'ldirib borildi. Shuningdek, O'zSSR Oliy Soveti Prezidiumining 1942-yil 13-fevraldagi farmoni bilan urush davrida ishlamayotgan mehnatga layoqatli aholi xotin-qizlar, o'smirlar, nafaqaxo'rlarni safarbar qilish hisobiga ishchilar safini kenggaytirish yo'lga qo'yildi. Sanoat ishlab chiqarishiga xotin-qizlar ayniqsa faol jalb qilindi. Agar 1940-yilda sanoatda ishchilar orasidagi xotin-qizlar salmog'i 34 foizni tashkil etgan bo'lsa, 1942-yilga kelib bu ko'rsatgich o'sib 63 foizga yetdi. Sanoat korxonalarining kengayishi, yangi qurilgan zavod-fabrikalarning ishi, muvaffaqiyati ularni malakali ishchilar bilan ta'minlashga bog'liq edi. Ammo ko'plab malakali va tajribali hodimlarning frontga olib ketilganligi sababli bir qancha muammolar kelib chiqdi. Ularning o'rnini to'ldirish maqsadida mamlakat hududidagi keksalar, ayollar, ayniqsa armiyaga chaqirish yoshiga yetmagan o'smirlar va qizlar korxonalarga jalb etildi, ularga hunar o'rgatildi. Qizsa muddat ichida respublikada 100 mingdan ko'proq malakali ishchilar tayyorlandi. Ular ish boshlagan zavodlar tinchlik davridagi zavodlardan farqli ravishda urush uchun kerakli bo'lgan mahsulotlarni ishlab chiqara boshladilar. Bu kabi zavod-fabrikalarning ko'pligi esa katta miqdordagi ishchi kuchini talab qilar edi.



O'zbekiston rahbariyati bu masalada o'zbek xalqiga murojaat qilib, ularni sanoat korxonalarini ishchi kuchi bilan ta'min etishga davat etdi. Bu chaqiriqqa birinchi o'rinda o'n minglab xotin-qizlar javob berdi. Bir necha kun ichida Toshkent shahridan 150 kishi sanoat korxonalarida ishlash uchun ariza berdi. Ularning asosiy qismi xotin-qizlar edi. Toshkent shahrida sanoat korxonalarida ishlash istagini bildirgan xotin-qizlar qisqa muddat ichida o'qitish ishlari yo'lga qo'yildi. 1941-yilning 15-oktabrigacha 7620 nafar istaklilar ana shunday kadrlar sifatida tayorlanib bo'lindi. Ularning 65 foizdan ko'pi xotin-qizlardan iborat edi. Faqat "Selmash" zavodining o'zida 2624 ishchi tayyorlandi, ularning 52,6 foizini ayollar tashkil qildi. "Krasnaya zarya" fabrikasida 270 kishiga hunar o'rgatilgan bo'lsa ularning 90 foizi ayollar edi. Urush davrida iqtisodiyotda xususan sanoat korxonalarida suyanish mumkin bo'lgan asosiy ishchi kuchi bu xotin-qizlar ekanligini anglagan Toshkent viloyati rahbariyati bu masalani har tomonlama o'rganib chiqib, 1941-yilning 5-noyabrigacha xotin-qizlardan yana 5000 ishchi tayyorlash vazifasini o'z oldiga maqsad qildi.

Bundan ko'rinib turibdiki xotin-qizlar ko'plab sohalarda sezilarli marralarni zabt etdilar. Ularning vatanga muhabbati, fidoiyligi sababdan urush davrida iqtisodiyot biroz bo'lsada o'sdi. Ammo bu yuksalish badali og'ir bo'ldi. Chunki ayollar yillar davomida erkaklar ishlagan vazifalarni bajarish davomida salomatliklariga katta zarar yetdi. Ayol jismonan erkakning vazifalarini bajara olgani bilan, ular buni uzoq vatq amalga oshira olmaydi shu sababdan urush yillari ishlab chiqarish hajmining ancha ortganligiga qaramay, sanoatning tarmoqlari bir tekisda rivojlanmadi. Elektroenergiya va yoqilg'i xom ashyolarining etishmasligi tufayli fabrika, zavodlarning bir qismi ishsiz turib qolgan edi. 1942-yili davlatga deyarli 1 mln. so'mga yaqin sanoat mahsulotlari topshirilmadi. Shu tufayli O'zbekiston hukumati o'z oldiga favqulotda masalalarni, ya'ni qudratli energetik bazani yaratish, xomashyo manbalarini aniqlash, ko'mir qazib olishni ko'paytirish, neft va gaz qayta ishlab chiqarish sur'atlarini jadalallashtirish qo'ydi. Shuning uchun ham xotin-qizlar



jismoniy imkoniyatlari ko'tarmasa-da, og'ir sanoat ishlab chiqarishida mehnat qilishga majbur etildi. Sovetlarning ma'muriy-buyruqbozlik boshqaruvi asosida, tazyiq va siquvlar oqibatida xotin-qizlar mavjud muhitga moslashishga majbur bo'lgan holda, o'zlari bilib-bilmay, sotsialistik xalq xo'jaligi zarbdori bo'lishga intilganlar. Urush yillarida respublikaning barcha viloyatlarida sanoatning rivojida ayollar o'z mehnati bilan salmoqli hissa qo'shdi. Ular vaqti kelganda, ikki va hattoki uch smenada ham mehnat qilishga majbur qilindi. Jumladan, Urganch tikuvchilik fabrikasida joriy qilingan uch smenalik ish faoliyatida Umarova, Sa'dullaeva, Bekmonova, Azizova kabi ishchi ayollar fido- yil bilan mehnat qilib, kundalik rejani 2-2,5 barvar qilib bajardilar. Ikkita o'g'lini frontga jo'natgan Ulijon Matkarimova kundalik vazifani 170-200 foizga bajaribgina qolmasdan, tikuvchilik kasbiga yoshlarni ham o'rgata boshladi. Xotin-qizlarning faol ijtimoiy kuch sifatidagi mehnati tufayli sanoat ishlab chiqarishi Farg'ona viloyatida 50-60 foizga o'sdi, Qo'qonda superfosfat zavodi, Fargona gidroliz zavodi, Quvasoydagi shifer va kimyo zavodlari, Qo'qondagi shakar zavodi, Marg'ilondagi konserva zavodi qurilib, ishga tushdi.

Biroq, keyinchalik xotin-qizlar tomonidan sanoatni tark etish kuzatila boshlandi. Bunga sabab yengil sanoatda turar joy muammosi va maktabgacha tarbiya muassasalarining yetishmasligi bo'lsa, og'ir sanoatda esa ko'p jismoniy mehnat talab qilinishi edi. Turli sanoat korxonalaridagi ayollar salmog'i vaqt o'tishi bilan kamayishni boshladi. Bunday holatning paydo bo'lishidagi asosiy sabablardan biri esa, og'ir jismoniy mehnatga asoslangan sanoat ishlab chiqarishining talablariga xotin-qizlar javob bera olmadilar. Tarixiy holislik nuqtai nazaridan bu holatga tabiiy jarayon deya baholash kerak. Chunki tabiatan ayollar jismoniy mehnatda erkaklar bilan tenglasha olmaydi. Ammo urush vaqti bo'lganligi hamda ko'plab erkaklarning urushda ekanligi sababidan ayollar ularning o'rnini egallab, g'alabaga o'z hissalarini qo'shishga harakat qildilar. Vaqt o'tishi bilan turli sanoat tarmoqlarida ayollarning ishni tark etish



holatlari kuzatildi. Bunga sabab esa xotin-qizlar organizmidagi turli kasalliklarning kelib chiqishi edi. Bu holatda esa sovet partiyasi yangi qarorlar qabul qilishiga turtki bo'ldi. Endilikda ishchi ayollar o'rtasida turli musobaqalarning o'tkazilishiga zo'r berib harakat qilina boshlandi. Xotin-qizlar orasidagi musobaqalar to'g'risida gazetalarda maqolalar berila boshlandi. Faol ayollar partiya tomonidan rag'batlantirildi. Olib borilgan bu kabi harakatlar o'z samarasini bera boshladi. Yangi qurilayotgan sanoat korxonalaridagi ishchilar safini ayollar bilan to'ldirish boshlandi.

Xulosa qilib aytganda, o'zbek xotin-qizlari uchun Vatan ozodligi va uning tinchligi muqaddas hisoblangan. Shuning uchun ham o'zbek ayollari o'z tabiatiga xos bo'lgan vatanparvarlik tufayli fashizmga qarshi urush yillarida janglarda mardlarcha qahramonlik ko'rsatishdi. Haqiqiy frontda ishtirok etmaganlar esa front ortini yana bir frontga aylantirishdi. Tinimsiz mehnatlar, salomatliklaridagi fidoiyliliklar evaziga buyuk g'alabaga o'z hissalarini qo'shdilar. O'zbekistonlik xotin-qizlar Vatan degan muqaddas tushunchani qanchalik teran anglashlarini urush yillarida yana bir bor ko'rsatib berdilar. Biz yuqorida faqatgina ayrim sohalardagi ayollar faoliyatiga to'xtaldik. Aslida esa xotin-qizlarimiz barcha jabhalarda ter to'kib mehnat qildilar. Urushning og'ir va zalvorli davrlarida ulkan matonat ko'rsatdilar. Nafaqat iqtisodiyotda balki, qishloq xo'jaligi, ta'lim, san'at kabi sohalarda ham yuksak natijalarni qayd etilganini ko'rishimiz mumkin. Shu sababdan "Ikkinchi front"da mardonavor mehnat qilgan xotin-qizlarimizni ma'naviy jasorat sohibalari desak mubolag'a bo'lmaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.

1. Эргашева М. XX асрнинг 20-30-йилларида Ўзбекистон халқ таълими тизимида хотин-қизларнинг иштироки ютуқ ва муаммолар. Тарих фанлари бўйича фалсафа доктори даражсини олиш учун ёзилган диссертация. — Фарғона: 2023. — 236 б.



2. Иккинчи жахон урушида фашизм устидан қозонилган ғалабага Ўзбекистон халқининг қўшган ҳиссаси. Илмий-амалий онлайн конференция материаллари. — Тошкент: Фан. 2020 й. 239 б
3. Inoyatov H. G'alabaga qo'shilgan hissa. – T.:Fan. 1975. B. 19-20
4. Jo'rayev T. O'zbekiston jangchilari Ulug' Vatan urushi frontlarida. – T.; Fan 1975.
5. Жўраева Н.Д. Ўзбекистон ижтимоий-иқтисодий ва маданий ҳаётда хотин-қизларининг ўрни (XX асрнинг 20—30-йиллари мисолида). Тарих фанлари номзоди илмий даражсини олиш учун ёзилган диссертация. — Т.: 2004. — 161 б.
6. Жўраева Н.Д. Ўзбекистонда хотин-қизларга муносабат (XX асрнинг 20-80-йиллари мисолида). Ўқув қўлланма. — Т.: 2013. — 256 б.
7. Мадраҳимова Р. Ўзбекистон хотин-қизларининг улуғ Ватан уруши йилларидаги меҳнат ва ҳарбий жасоратлари. — Т.: Фан, 1981.

